



# FANLARARO TADQIQOT VA INNOVATSIYALARGA GLOBAL YONDASHUV

## ABSTRACT

This conference aims to bring together leading researchers, academicians, and professionals from around the world to discuss the latest developments, challenges, and opportunities in interdisciplinary research and innovation. By fostering collaboration across diverse disciplines, the event seeks to promote groundbreaking ideas and solutions that address global challenges.

Vol.01.Issue 01, 2024,

Tashkent

Speacial issue

# FANLARARO TADQIQOT VA INNOVATSIYALARGA GLOBAL YONDASHUV

## BIRLAMCHI GIPOTIREOZGA EGA BEMORLARDA YOSHGA QARAB VEGETATIV ASAB TIZIMINING ZARARLANISHI

**N. Artikov, M.A. Bahadirova**

*Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi,  
O'zbekiston*

### Dolzarbligi

Birlamchi gipotireoz – bu endokrin kasallik bo'lib, organizmning turli tizimlariga, jumladan, vegetativ asab tizimiga (VAT) sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gipotireozda VAT zararlanishi yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa tizimlarning boshqaruvida buzilishlar bilan namoyon bo'ladi (1,2,3). Bemorning yoshi ushbu buzilishlarning og'irligiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa mazkur mavzuni o'rganish ahamiyatini oshiradi.

### Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqotning maqsadi – birlamchi gipotireozga ega bemorlarda yoshga qarab vegetativ asab tizimi zararlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir.

### Tadqiqot materiallari

Tadqiqotda Xorazm viloyati va Urganch shahrida yashovchi 150 nafar birlamchi gipotireoz tashxisi qo'yilgan bemor ishtirok etdi. Ishtirokchilarning yoshi 18 dan 75 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh  $47,3 \pm 12,6$  yoshni tashkil etdi. Bemorlarning 112 nafari (74,7%) ayollar, 38 nafari (25,3%) erkaklardir.

- I guruh: 18–40 yosh oralig'idagi 52 bemor.
- II guruh: 41–60 yosh oralig'idagi 64 bemor.
- III guruh: 61–75 yosh oralig'idagi 34 bemor.

### Tadqiqot metodlari

#### 1. Vegetativ asab tizimini baholash

- Yurak urishining variabelligi (HRV) testlari.

# FANLARARO TADQIQOT VA INNOVATSIYALARGA GLOBAL YONDASHUV

- Ortoostatik sinama: VATning tana holati o‘zgarishlariga javobini baholash.
- Ter ajralishi va teri-galvanik javobni o‘rganish.

## 2. Laboratoriya tahlillari

- TTG va erkin T4 darajalarini aniqlash.
- Tireoperoksidazaga qarshi antitanachalarni aniqlash.

### Tadqiqot natijalari

#### 1. Yurak urishining variabelligi (HRV):

- 60 yoshdan oshgan bemorlarda HRV ko‘rsatkichlari sezilarli pasaygan (SDNN:  $31,2 \pm 5,8$  ms), yosh guruhgaga nisbatan ancha past (SDNN:  $45,6 \pm 7,4$  ms,  $p < 0,05$ ).
- Parasempatik tizim faoliyati pasayishi 68% katta yoshdagи bemorlarda qayd etilgan.

#### 2. Ortoostatik sinama:

- 60 yoshdan oshgan bemorlarda ortoostatik gipotensiya 45% qayd etilgan.
- Yosh guruhda ( $<40$  yosh) bu holat faqat 12% bemorlarda kuzatilgan.

#### 3. Ter ajralishi va teri-galvanik javob:

- Katta yoshdagи bemorlarda distal bo‘limlarda ter ajralishi buzilishi qayd etilgan.
- Teri-galvanik javob 72% katta yoshdagи bemorlarda pasaygan.

#### 4. Laboratoriya markerlari:

- TTG darajasi  $>10$  mEd/l bo‘lgan bemorlarda VAT buzilishlari xavfi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan (OR=3,8; 95% CI: 2,3–6,1).

# FANLARARO TADQIQOT VA INNOVATSIYALARGA GLOBAL YONDASHUV

- AT-TPO darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarda ter ajralishi buzilishlari ko‘proq kuzatilgan.

## Xulosalar

1. Yoshi birlamchi gipotireozda vegetativ asab tizimining zararlanish darajasiga ta’sir qiluvchi muhim omildir.
2. Katta yoshdagi bemorlarda parasempatik tizim faoliyati va ter ajralishining buzilishlari ustunlik qiladi.
3. VAT funksiyalarini yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash diagnostika va davolashda individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Jamal, M., Al-Shafai, N., & Hassan, H. (2017). Peripheral neuropathy in hypothyroidism: Prevalence and pathophysiology. Clinical Neurology and Neurosurgery.
4. Fazio, S., Palmieri, E. A., & Lombardi, G. (2004). Effects of thyroid hormone on the cardiovascular system. Endocrine Reviews.
5. Mendhekar, D. N., Kothari, R., & Singh, P. (2022). Hypothyroid encephalopathy: A case report. Indian Journal of Psychiatry.